

GAZLAMALARNI XOSSALARI VA XUSUSIYATLARI

Rahmatova Nilufar Bahodirovna

Toshkent viloyati Toshkent tumani 1-son kasb hunar maktabi

Annottatsiya: *Gazlamalarni xossalari va xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *model, analiz, krep, ratin, kombinatsiya, hom-ashyo, mustahkamlik, furnitura*

Xom gazlamani tayyor gazlama shakliga keltirish uchun bajariladigan fizik-kimyoviy va mexanik jarayonlar yig'indisi gazlamalarni pardozlash deyiladi. Gazlamalarni pardozlashdan maqsad ularning tashqi ko'rinishi va sifatini yaxshilashdir. Pardozlashda gazlamani hosil qiluvchi tolalarning kimyoviy tarkibi hisobga olinadi.

Ip gazlamalarni pardozlash asosiy jarayonlari. Ip gazlamalarni pardozlash jarayoni quyidagichadir:

1. Tuk kuydirish - xom gazlama sirtidagi tolalarning uchlarini ketkazish. Tolalarning uchlari gazlamalarning tashqi ko'rinishini yomonlashtiradi, gul bosishda nuqsonlar hosil qiladi, ich kiyimlik gazlamaning tez kirlanishiga sabab bo'ladi. Tuk chiqaradigan gazlamalar va dokadan boshqa barcha ip gazlamalarning tuki kuydiriladi. Buning uchun gaz yordamida tuk kuydirish mashinalari ishlatiladi.

2. Oxorni ketkazish- oxorlash paytida shimdirilgan oxorni ketkazish maqsadida gazlamaga quyidagicha ishlov beriladi. Gazlama ho'llanadi va 24 soat mobaynida qutilarga solinib qo'yiladi. Jarayonni tezlashtirish uchun gazlamani ho'llash paytida suvga past kontsentrlangan sulfat kislotasi, o'yuvchi natriy va yana bir necha xil moddalar qo'shiladi. Bundan keyin gazlamalar yuviladi.

3. Qaynatish - paxta tolasi tarkibiga kiruvchi tsellyuloza aralashmalarini (mum, yog', pektinlar) oxor qoldqilarini ketkazish uchun gazlamalarga ishqorli eritmada ishlov berish. Gazlamalar bosim ostida germetik berkitilgan qaynatish qozonlarida 4-8 soat davomida 98-1000S da qaynatiladi. Oldin qaynoq suv, keyin sovuq suv bilan yuviladi. Qaynatilgan gazlamalarning mayinligi va gigroskopikligi oshadi. Bu bo'yash jarayonini osonlashtiradi.

4. Oqartirish - gazlamalarga turg'un oq tus berish uchun ularga natriy gipoxlorid, vodorod peroksid va boshqa oksidlovchi moddalar eritmasida ishlov berish. Bundan keyin gazlamalar yana yuviladi.

5. Merserizatsiya - tarang tortilgan gazlamaga kontsentrlangan o'yuvchi natriy eritmasida 16-200Sda ishlov berib, oldin qaynoq, keyin sovuq suvda yuvish.

Merserizatsiyadan keyin gazlamaning mustahkamligi, gigroskopikligi, mayinligi oshadi, gazlamalar yaltiroq bo'ladi. Keyingi bo'yash jarayonini osonlashtiradi.

6. Tuk chiqarish - qishki kiyimlar uchun mo'ljallangan flanel, bumazeya, bayuka, ip movuti, velveton, zamsha gazlamalarining sirtiga tuk chiqariladi. Gazlamalarning mayinligi, issiqni saqlash xossalari oshadi. Buning uchun sirtiga ignali lenta tortilgan marzali tuk chiqarish mashinalari ishlatiladi. Ignalar arqoq ipidagi tolalarni tortib chiqaradi va gazlama sirtida tuk bo'ladi.

7. Bo'yash- biror rangdagi sidirg'a tekis tus berish uchun gazlamaga bo'yovchi modda singdirish jarayoni. Gazlamani bo'yash uchun uni tarang tortib bo'yoq eritmasi orqali o'tkaziladi. Bo'yoqlar tabiiy va sintetik bo'lishi mumkin: oddiy, sulfatli, kub, azubuyoqlar, qora anilin, pigment va boshqalar.

8. Gul bosish - gazlamaga rangli naqsh tushirish jarayoni. U gul bosish mashinalarida bajariladi.

9. Appretlash - gazlamalarga maxsus tarkib -appretlar - shimdirib ularning qattiqligi, yaltiroqligi, ishqalanishga chidamligini oshirish. Appret tarkibiga oxor, glitserin, osh tuzi, oqlik beruvchi moddalar, yumshatuvchi va yaltiratuvchi moddalar kiradi. Oxorli appret gazlamani birinchi yuvishdayoq erib ketadi va gazlama ko'rkamligini yo'qotadi. Shu tufayli ba'zi vaqtda yuvilib ketmaydigan appretlar ham ishlatiladi.

Bu jarayonlardan keyin gazlamalar kengaytirish, kalandrlash (dazmollanish) va maxsus pardozlashdan o'tkaziladi.

Zig'ir tolali gazlamalarni pardozlash jarayonining tartibi va mohiyati ip gazlamalarni pardozlashdagidan farq qilmaydi.

Mintaqamizdagi iqlim sharoiti issiq kiyimlarga zarurati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Insonlar tabiiy noqulaylikdan himoyalanih maqsadida turli kiyimlardan foydalanadilar.

Eng ko'p tarqalgan issiq saqlovchi tikuv buyumlariga paltolar, kurtkalar va po'stinlar kiradi. Ular ichida paltolar turli yoshlarda va sharoitlarda kiyish mumkinligi bilan ajralib turadi. Paltolarni asosiy detallari turli xossali gazlamalardan tashkil topadi.

Qishga mo'ljallangan ustki kiyimlarga issiq saqlash, suv, havo o'tkazmaslik va chang yutmaslik xossalari muhim hisoblanadi. Keyingi o'rindagi xossalariga tikuv buyumining yengilligi, quyosh nuri ta'siriga chidamliligi va elektrlanishi kiradi. Xom ashyolarning mazkur xossalari ularni tashkil qilgan tolalar turiga, to'qima tuzilshiga va turli qo'shimcha ishlov berilganligiga uzviy bog'liq.

Tabiiy tolali gazlamalar tashqi ko'rinishi yorqin ranglarda bo'lmasada, ular issiqlikni yaxshi saqlaydi. Ammo, tabiiy gazlamali kiyimlar suvni yaxshi shimadigan va o'tkazadigan hisoblanadi. Bu ustki kiyimlardan yog'ingarchilik vaqtida uzoq muddat ochiq havoda harakatlanishga to'sqinlik qiladi.

Gazlamalarni tola tarkibi organoleptik usullari bilan aniqlanadi. Bu usul gazlamalarni tola tarkibini quyidagi tartibda aniqlash tavsiya qilinadi: gazlamani tashqi ko'rinishini ko'zdan kechirish, gazlamani g'ijimlab ko'rish, tanda va arqoq iplarini xilini aniqlash, tanda va arqoq iplarini uzib ko'rish, tanda va arqoq iplarini yoqib ko'rish, hamda mikroskop yordamida sinash orqali aniqlanadi.

Gazlamani tola tarkibini aniqlashda avvalo uning rangiga, tovlanishiga, qalinligiga, zichligiga ahamiyat berish kerak. So'ngra g'ijimlab ko'rish lozim. Buning uchun gazlamani buklab, qo'lda mahkam siqish, 30 c dan so'ng bo'shatib, qo'l bilan tekislash kerak. Shunda hosil bo'lgan burmalarning xarakteriga qarab, gazlamalarning tarkibi aniqlanadi. So'ngra tanda va arqoq iplarni ko'zdan kechiriladi va sinalayotgan iplarning yonishini kuzatiladi.

Shuni yodda tutish lozimki, jun gazlamalar paypaslab ko'rilganda qo'lga tukdek o'nnaydi. Gazlamalarni xilini aniqlashda uni g'ijimlab ko'rish lozim: bunda sof junli gazlamalarda mayda burmalar hosil bo'lib, qo'lda tekislanganda yo'qoladi, o'simlik tolalari qo'shib to'qilgan jun gazlamalarda yirik relefli burmalar hosil bo'lib, qo'lda tekislanganda yo'qolmaydi, lavsan qo'shib to'qilgan gazlamalarda yirik burmalar hosil bo'lib, qo'l bilan tekislanganda yo'qoladi.

Jun gazlamalar tarkibida aralashmalar bor yo'qligini bilish uchun, tanda va arqoq iplari yoqib ko'riladi. Sof jun kalava ip alangada jizg'anak bo'lib kuyadi, alangadan olganda yonmaydi, uchlari qora jizg'anak sharchalar hosil bo'ladi, ular barmoqlar bilan ishqalanganda uvalanib ketadi, ularda kuygan pat hidi anqiydi.

Gazlamalarni issiq saqlash xususiyatlari paltobop xom ashyolar uchun muhim hisoblanadi. Bu hususiyatlar gazlamaning tola tarkibiga, qalinligiga va zichligiga bog'liq bo'ladi. Jun gazlamalarning issiq saqlash xususiyatlari eng yuqori, zig'ir tolali gazlamalarniki eng pastdir.

Bosish, tuk chiqarish, preslash jarayonlari gazlamalarning issiqni saqlash xususiyatlarini yaxshilaydi. Ko'p qatlamli o'rilishlarni qo'llash, tuk chiqarish natijasida, gazlamada ko'p havo qatlamlari hosil bo'lib, ular gazlamaning issiq saqlash xususiyatlarini yaxshilaydi. Tarab tuk chiqarilgan qalin, zich jun gazlamalarning issiqni saqlash xossalari eng yuqori bo'ladi.

Chang oluvchanlik- gazlamaning kirlanish xususiyati. U gazlama o'ngining xarakteriga, gazlamaning tola tarkibiga, zichligi va pazdoziga bog'liq bo'ladi. Tarab tuk chiqarilgan jun gazlamalarning chang oluvchanligi juda yuqori bo'ladi.

Suv o'tkazmaslik –gazlamaning suv sizib kirishiga qarshilik ko'rsatish xususiyati, suv o'tkazmaslik maxsus gazlamalar, plashlik gazlamalar, paltolik va kastyumlik jun gazlamalar uchun juda muhimdir.

Suv o'tkazmaslik gazlamaning tola tarkibiga, zichligiga bog'liq bo'ladi. Gazlamaning suv o'tkazmasligini oshirish va uni suv o'tkazmaydigan qilish uchun unga suv yuqtirmaydigan va suv o'tkazmaydigan qiluvchi pardoqlar beriladi.

Materialni suv o'tishiga qarshiligani hamyon usulida aniqlanadi (1-rasm). Bunda to'rtta ustuncha ikkiga o'rnatilgan namuna birning osilgan qismiga suv solinadi va bundan boshlab to'rtta namunadan uch tomchi suv o'tgunga qadar sarflangan vaqt yoziladi. Ana shu vaqt gazlamaning suv o'tkazmasligiga qarshiligini ifodalaydi.

Suv shimilish yoki yutish ko'rsatkichlarini tadqiq qilinganda chuchuk suv, yomg'ir, qor va ishqorli suvlardan foydalanib olib borildi. Bunday obektlarni tanlashdan maqsad,

gazlamalar tayyor kiyim bo'lgandi undan foydalanuvchi yomg'ir va qorda, hamda ushbu kiyimni yuvish vaqtidagi ta'sir qilish darajasini o'rganishdir.

Sinovlarda ishlab chiqarishda keng qo'llanilayotgan gazlamalardan besh namuna tanlandi va ular ustiga 20 mg suv quyib chiqildi. Suvning uch tomchisi o'tib bo'lgan vaqt suv o'tish ko'rsatkichi hisoblandi. Natijalar jadvalda keltiriladi.

Natijalarga asoslangan holda 4-5 namunani palto uchun tavsiya qilishimiz mumkin. Bu namunalar barcha turdagi suvlar ta'siriga chidamli hisoblanadi. Tukli gazlamaning asosida noto'qima materialdan bo'lganligi va tuklar orasida suv tomchilarini harakatlanishi qiyin bo'lganligi uchun suv shimilish ko'rsatkichi past hisoblanadi. Tandasi jun, arqog'i kapronli gazlama oddiy suv ta'siriga chidamli bo'lsada, ammo qor va ishqorli suvga chidamsizdir. Tanda va arqog'i aralash (jun+poliakril) tolalardan tashkil topgan matolar nisbatan uzoq muddat suv ta'siriga chidashini ko'rsatdi.

Inson havo harorati past bo'lgan davrda qalin gazlamali tikuv buyumlaridan foydalanadi va bu davrda yog'ingarchiliklar ko'p bo'lib, matoni noto'g'ri tanlanishi tufayli u bir qator noqulayliklarga olib kelishi mumkin. Agar, mato to'g'ri tanlansa kishilarni turli iqlim sharoitlaridan ularning kiyimlari to'liq himoyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abbasova N.G. va boshqalar “Yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi” T.2006 y.

2. Tursunova X Sh, BB Nizamova, SR Mamatqulova. “Analysis Of The Range Of Modern Women's Coats”. The American Journal of Engineering and Technology, 2022.

3. M.M.Ulug'boboyeva, X Sh Tursunova. Trikotaj buyumlar ishlab chiqarishdagi muammolarni hal qilish yo'llari. Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqot jurnali, 2021

4. X. Sh. Tursunova. Study of Preliminary Design Work for the Selection and Manufacture of Fabrics Based on the Analysis of School-Age Girls' Clothing. ISJ Theoretical & Applied Science

5. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.

7. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.

8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.

8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). NEYRON TARMOQLARNING TASNIFI. Scientific Impulse, 1(3), 757-763.
9. Hamidullo o'g'li, Tursunov Hojiakbar, and Boymuratov Erkin Kamolovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI." Scientific Impulse 1.7 (2023): 648-653.
10. Mamanovich, R. K. (2021). Components of political culture in political processes. *Academica: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 953-959.
11. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 218-220.
12. Расулов, Х. (2021). Ҳуқуқий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. *Общество и инновации*, 2(10/S), 335-342.
13. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 221-223.
14. Расулов, Х. М. (2021). ВЫБОРНЫЙ ЯВЛЕНИЕ И ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭЛЕКТРОКУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ. *Восточно-европейский научный журнал*, (11-6 (75)), 28-32.
15. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. *ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ*, 75(part 6), 28.
16. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 218-220.
17. Хакимова, М. (2021). Ўзбекистонда миллатлараро тотувликни таъминлаш соҳасидаги устувор йўналишлар. *Общество и инновации*, 2(10/S), 261-267.
18. Ramazanovich, N. M., & Abdurasulovich, E. B. (2022). CONSTITUTIONAL STATUS OF POLITICAL PARTIES. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 79-88.
19. Ramazanovich, N. M., & Abdurasulovich, E. B. (2022). PROCEDURE FOR REGISTRATION OF PUBLIC ASSOCIATIONS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 740-746.
20. Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 89-94.
21. Ramazanovich, N. M., & Alisherovich, A. A. (2022). CONSTITUTIONAL STATUS OF THE FAMILY IN UZBEKISTAN. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 732-739.

22. Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS, THEIR SUBJECTS, OBJECTS AND TYPES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 747-756.

23. Normamat Mallaev Ramazanovich. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL STATUS OF MASS MEDIA. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 70–78.

24. Normamat Mallaev Ramazanovich, & Khaitmurod Mamanorov. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 89–94.

25. Ramazanovich, Mallaev N. "Comparative Analysis of National and Foreign Experiences on the Example of the Constitutional and Legal Basis of Ecological." International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, no. 2, 2020, pp. 1-5.

26. Normamat Mallaev Ramazanovich, IMPORTANCE AND ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVIL RIGHTS , Web of Scientist: International Scientific Research Journal: Vol. 3 No. 10 (2022): wos

27. Кушоков, С. (2021). Сополли ва Жарқўтон маданиятида дафн маросимлари. Общество и инновации, 2(11/S), 150-154.

28. Kushokov, S. Y. (2021). The Role of Zoroastrianism in the Ancient State of Bactria. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 69-72.

29. Yusupovich, K. S. (2020). The Emergence Of Religious Views Is Exemplified By The Southern Regions. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(10), 143-145.

30. Yusupovich, K. S. (2021). Қадимий Дафн Маросимларидаги Анъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 1(6), 72-77.

31. Сафарали, К. Ю. (2020). Чорвадор Қабилалар Дафн Маросимлари Ва Уларнинг Хусусиятлари. Взгляд В Прошлом, 3(4).

32. Сафарали, К. Ю., & Хуррамов, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ МАЛАЙЗИЯ ҲАМДА ИНДОНЕЗИЯ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ СОҲАЛАРДАГИ ҲАМКОРЛИГИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 176-186.

33. Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. European Scholar Journal, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. The American Journal of Interdisciplinary.